

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– oktabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,9 f.p. oshgan.**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,6 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-oktabr oyida viloyatda **4,6 mingga** yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,1 mingtaga** ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **44,3 %** ga kamaygan hamda ularning soni **986 tani** tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **4,6 mingta (13,0 %)** ga o'sgan hamda ularning umumiy soni **30,4 mingtani** tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (10,3 %), Zangiota (9,8 %) va Toshkent (7,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Toshkent viloyati	34672	100.0	30412	100.0
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	850	2.5	715	2.4
Ohangaron	810	2.3	720	2.4
Bekobod	949	2.7	821	2.7
Bo'stonliq	1712	4.9	1377	4.5
Bo'ka	1123	3.2	885	2.9
Quyichirchiq	931	2.7	849	2.8
Zangiota	3469	10.0	2966	9.8
Yuqorichirchiq	1974	5.7	1885	6.2
Qibray	3593	10.4	3141	10.3
Parkent	1639	4.7	1548	5.1
Piskent	904	2.6	833	2.7
O'rtachirchiq	1658	4.8	1532	5.0
Chinoz	1137	3.3	1084	3.6
Yangiyo'l	1734	5.0	1490	4.9
Toshkent	2467	7.1	2158	7.1
shaharlar:				
Nurafshon	858	2.5	779	2.6
Olmaliq	1467	4.2	1376	4.5
Angren	2360	6.8	1816	6.0
Bekobod	999	2.9	945	3.1
Ohangaron	839	2.4	742	2.4
Chirchiq	1938	5.6	1825	6.0
Yangiyo'l	1261	3.6	925	3.0


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,7 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 12,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9 % savdoda, 19,1 % sanoatda, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,3 % qurulishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-oktabr holatiga 4612 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 30,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (424 ta), Qibray (406 ta), Toshkent (297 ta) va Yangiyo'l tumanlariga (282 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (110 ta), Bekobod tumanlarida (121 ta), Ohangaron (98 ta) va Bekobod shaharlarida (129 ta) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (1074 ta), savdoda (894 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (743 ta) va qurilish (506 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (69 ta), axborot va aloqada (82 ta) hamda tashish va saqlashda (161 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-oktabr holatiga.	2018 yil yanvar-oktabr holatiga.
Jami:	3531	4612
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	725	743
Sanoat	897	1074
Qurilish	271	506
Savdo	638	894
Tashish va saqlash	130	161
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	323	376
Axborot va aloqa	48	82
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	66	69
Boshqa turlari	433	707

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 25,1 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 5,6 mingta, oilaviy korxonalar – 1,6 mingta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 17,3 mingta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 0,05 mingtani va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etadi.



O'ZBEKENERGO AK
TOSHKENT HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI AJ




«УЗНЕФТЕГАЗМАШ»
АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 799 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 193 taga yoki 32,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 463 tasi norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, 336 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Zangiota tumani 103 ta (12,9 %), Qibray tumani 82 ta (10,3 %) va Yuqorichirchiq tumani 77 ta (9,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod 5 ta (0,6 %) Bo'ka 6 ta (0,8 %), Piskent 8 ta (1,0 %), Oqqo'rg'on tumanlari 10 ta (1,3 %), hamda Bekobod shahri 6 ta (0,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish bo'lasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 501 ta (62,7%), savdoda 113 ta (14,1%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 68 ta (8,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 57 ta (7,1%) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,1%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 8 ta (1,0%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (1,6%), tashish va saqlashda 17 ta (2,1%) hamda qurilishda 21 ta (2,6%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 201 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134 taga ko'paygan yoki 3,0 baravarga oshgan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 57 ta, Rossiya Federatsiyasi - 34 ta, Qozog'iston Respublikasi - 29 ta, Turkiya Respublikasi - 24 ta va Janubiy Koreya Respublikasi - 15 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Turkmaniston, Pokiston Islom Respublikasi, Singapur Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Avstriya Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Gretsiya Respublikasi, Isroil davlati va boshqa rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 121 ta, savdoda 34 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 19 ta, qurilishda 10 ta, boshqa turlarda 8 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta, tashish va saqlash 3 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 15,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2,8 mingtasi (10,7 %) Qibray, 2,5 mingtasi (10,1 %) Zangiota, 1,9 mingtasi (7,6 %) Toshkent hamda 1,6 mingtasi (6,6 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24,8 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,6 mingtasi (26,6 %) - savdoda, 5,7 mingtasi (23,0 %) - sanoatda, 3,4 mingtasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,3 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,2 mingtasi (8,9 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqa sohasida va 2,8 mingtasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktabr holatiga 4,3 mingtaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (404 ta), Qibray (381 ta) Toshkent tumanlarida (269 ta) va Angren shahrida (265 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent (99 ta), Bekobod (116 ta), Bo'ka (127 ta), Ohangaron va Oqqo'rg'on tumanlarida (129 tadan) hamda Ohangaron (88 ta), Bekobod (117 ta) va Nurafshon shaharlarida (128 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1072 ta), savdoda (893 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (742 ta) va qurilishda (505 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (65 ta), axborot va aloqada (81 ta) hamda tashish va saqlashda (159 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 1763 tani tashkil etib, ulardan 1562 tasi yoki 88,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **12,0** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 39,5 % yoki 617 tasi sanoat, 19,3 % yoki 301 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,9 % yoki 279 tasi savdo, 15,0 % yoki 234 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 13 tasi qurilish, 0,6 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 5,7 % yoki 89 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
 Statistik registrlarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: X.Igamberdiyev
 (0371) 230-86-84,83